


## **2019-yilning yanvar-avgust oylarida Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 2 trln. 524,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 108,1 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 9,4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 0,6 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash - 2,0 %ga o'sishi hisoblanadi. Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish (93,8 %) pasaydi.

### **2019-yilning yanvar-avgust oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi**



### **Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 141,3 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,6 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan chaqiq tosh – 1,9 martagaga, osh tuzi - 1,7 martaga, ko'mir qazib olish - 20,8 % ga oshdi, xom neft (96,5 %) pasaygan.



### **Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

<b>2018-yil yanvar-avgustida ishlab chiqarilgan</b>	<b>Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari</b>	<b>2019-yil yanvar-avgustida ishlab chiqarilgan</b>	<b>O'sish sur'ati, %</b>
---	--	---	--------------------------

#### **Ko'mir, ming t.**

115,7



139,7

120,8



#### **Neft, ming t.**

57,0



55,0

96,5



2018-yil yanvar-avgustida ishlab chiqarilgan	Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2019-yil yanvar-avgustida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--	---	--	-------------------

**Osh tuzi, ming t.**

3,7



6,5

1,7m



**Qum, ming t.**

23,6



28,7

121,6



**Chaqiq tosh, ming t.**

24,2




45,0


1,9m




**Neft qazib olish, ming t.**



### **Ko'mir qazib olish, ming t.**



### **Chaqiq tosh qazib olish, ming t.**




### **Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).**

2019-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 trln. 188,0 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 86,7 % ini tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 0,1 % ni (2018-yil yanvar-avgust oylarida - 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 0,4 % ni (0,3 %), o'rta-quyi texnologiyali - 26,1 % (24,3 %) ni va quyi texnologiyali - 60,0 % (60,7 %) ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha  
ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**

**2019 yil yanvar-avgust**








**2018 yil yanvar-avgust**



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasi - 6,9 % (2018-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish 100,6 %) ni, to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish - 37,2 % (126,1 %) ni, yog'och va po'kak buyumlar, pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari va mebel ishlab chiqarish - 3,3 % (101,8 %) ni, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 28,4 % (101,9 %) ni, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish - 0,4 % (100,3 %) ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda qurilish uchun qorishmalar va aralashmalar - 5,1 martaga, quyish uchun tayyor beton - 1,5 martaga, osh tuzi 1,7 martaga, un - 8,6 % ga, neft bitumi - 5,4 % ga, don ekinlarini qayta ishlashdan hosil bo'lgan kepak, chiqit va boshqa chiqindilar - 7,4 % ga oshdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda  
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018-yil yanvar-avgustida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-avgustida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
37,3	<b>Paxta tolasi, ming t.</b> 	7,1	19,0 ↓
0,0	<b>Tozalangan kungaboqar yoki masxar yog'i, ming t.</b> 	80,9	- ↑
67,8	<b>Un, ming tn</b> 	73,7	108,6 ↑
1201,0	<b>Aroq, ming l.</b> 	887,0	73,9 ↓
8,4	<b>Dizel yoqilg'isi, ming t.</b> 	7,6	90,7 ↓







**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 149,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,9 % ni) tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-avgust oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida gazsimon yoqilg'li ishlab

chiqarish va taqsimlash o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 martaga oshganligi kuzatildi. Elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash (75,7 %) kamaydi.

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018-yil yanvar-avgustida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-avgustida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
0,0	<p><b>Elektroenergiya, mln.kVt/s</b></p> 	2,02	- ↑
53,6	<p><b>Issiqlik energiyasi, ming Gkal</b></p> 	39,9	74,4 ↓

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.**



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 45,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,8 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 58,4 % ga, boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar - 41,8 % ga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari - 12,9 % ga oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 2,4 % ga oshganligi, tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo (ikkilamchi xom ashyo materiallari) (89,2 %) kamayganligi kuzatildi.

**Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018-yil yanvar-avgustida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-avgustida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--	---	--	-------------------

**Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, ming tonna**

10,1



9,0

89,3



**Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm**

2,7



2,8

102,4






### Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 951,9 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 5,1 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 37,7 % ni tashkil etdi.

### 2019-yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sishi sur'ati




2018-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 49,0 % dan 2019-yilning yanvar-avgust oylarida 49,7 % ga oshdi, nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 51,0 % dan 50,3 % ga pasayganligi kuzatildi.

### ***Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi***

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 526,1 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 20,8 % ni tashkil etdi.


**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %**



**Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.**


Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Termiz shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 21,2 %), Jarqo'rg'on (23,2 %), Denov (13,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**2019-yil yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarishning o'sishi 2018-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan %**



Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Denov (iste'mol tovarlari hajmida 21,0 %), Sho'rchi (12,9 %) tumanlari va Termiz shahri (15,1 %) da ishlab chiqarildi.

**2019-yil yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va o'sishi ko'rsatkichlari**




**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 1286,3 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, ularning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 51,0 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Oltinsoy, Boysun (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Uzun (98,4 %) va Termiz (87,8 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Sherobod (29,8 %), Jarqo'rg'on (33,0 %), Sho'rchi (41,1 %) tumanlari va Termiz shahrida (34,8 %) kuzatildi.

**2019-yilning yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %**



**Sanoat statistikasi bo'limi**  
Aloqa telefoni: (76) 223-07-24